

## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-martida Samarqand viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda –YaHM) hajmi joriy narxlarda 10 086,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-marti bilan taqqoslaganda 6,0 % ga o'sdi.

YaHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 111,0 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Samarqand viloyatining qo'shgan hissasi 6,2 % ga yetdi.


### **2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>Mlrd. so 'm</i>		<i>O'sish sur'ati, % da</i>
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	
<b>I. Yalpi hududiy mahsulot, jami</b>	<b>8 569,5</b>	<b>10 086,5</b>	<b>106,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	8 301,3	9 753,6	105,8
Mahsulotlarga sof soliqlar	268,2	332,9	112,1
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>8 301,3</b>	<b>9 753,6</b>	<b>105,8</b>
<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>2 217,5</b>	<b>2 489,0</b>	<b>101,9</b>
<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>2 117,8</b>	<b>2 569,1</b>	<b>110,1</b>
Sanoat	1 553,1	1 898,3	110,7
Qurilish	564,7	670,8	108,6
<b>Xizmatlar</b>	<b>3 966,0</b>	<b>4 695,5</b>	<b>105,7</b>

Savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	739,1	878,7	106,9
Tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	652,9	766,4	112,3
Boshqa xizmatlar	2 574,0	3 050,4	103,7

2022- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan yalpi hududiy mahsulot hajmi 2 496,3 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 3,8 % ga yuqoridir.

### **2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o‘sish sur’atlari**



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,7 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,3 % ini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YaHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 25,5 % ni, sanoat tarmog‘i 19,5 % ni, qurilish 6,9 % ni va xizmatlar sohasi 48,1 % ni tashkil qildi.

Xizmatlar sohasi tarkibida savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar 9,0 % ni, tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari 7,9 % ni va boshqa xizmat tarmoqlari 31,2 % bo‘ldi



## 2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan, % da)

		2021- yil	2022- yil
	<b>I. YaHM</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	96,9	96,7
	Mahsulotlarga sof soliqlar	3,1	3,3
	<b>Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<b>Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi</b>	<b>26,7</b>	<b>25,5</b>
	<b>Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)</b>	<b>25,5</b>	<b>26,4</b>
	sanoat	18,7	19,5
	qurilish	6,8	6,9
	<b>Xizmatlar</b>	<b>47,8</b>	<b>48,1</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	8,9	9,0
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	7,9	7,9
	boshqa xizmat tarmoqlari	31,0	31,2



## 2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2021- yil



2022- yil





YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 101,9 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 25,5 %), sanoatda 110,7 % (19,5 %), qurilishda 108,6 % (6,9 %), xizmatlar sohasida 105,7 % ni (48,1 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatharda 106,9 % (9,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,3 % (7,9 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,7 % (31,2 %) dan iborat bo'ldi.




### Yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutloq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

■ 2021- yil      ■ 2022- yil



YaHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,5 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 0,3 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,9 f.p. (2021- yilning yanvar-martida salbiy 1,4 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,6 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 1,5 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,6 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 2,0 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YaHM 0,4 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 0,3 f.p.) ga ko'paydi.




2022- yilning yanvar-martida YaHM deflyatori indeksi 2021- yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 111,0 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlar sohasida – 112,0 % va qurilishda 110,4 % qayd etildi.


*Samarqand viloyatining statistik axborotnomasi*



**Yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha deflyator indeksi  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



**2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida  
YaHMda kichik biznesning ulushi  
(jamiga nisbatan % da)**



2022- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 63,8 % ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-martida – 66,2 %).

Kichik tadbirkorlikning YaHM-dagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.